



TARMOQ TEXNOLOGIYALARIDAN MAKTABLARDA FOYDALANISH

¹Xushboqova Saodat Qo'chqor qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi

xushboqovasaodat@gmail.com

Tel: +998-91-967-11-02,

²Dilshodbek Navruzov Normat o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi

dilshodnavruzov45@gmail.com

Tel: +998-99-468-49-97.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7460608>

ARTICLE INFO

Received: 08th December 2022

Accepted: 18th December 2022

Online: 19th December 2022

KEY WORDS

Integrativ yondashuv, tarmoq texnologiyalari, reproduktiv uzatish, pedagogik tadqiqotlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada tarmoq texnologiyalaridan maktablarda foydalanish, axborotlashgan ta'lim jarayonining zamonaviy tendensiyasi tahlili, o'quv jarayonida tarmoq texnologiyasining qo'llanilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida integrativ yondashuvni amalga oshirish tizimlari haqida batafsil bayon etilgan.

Kirish: Hozirgi kunda tarmoq texnologiyalarning asosiy vositalarini-buyumlar interneti tashkil etmoqda. Buyumlar interneti bu - maxsus elektronika, dasturiy ta'minot, sensorlar, qabul qiluvchi va uzatuvchi qurilmalarning o'zaro ma'lumot almashinuvidan iborat tarmoq tizimi bilan jihozlangan sun'iy intellekt yordamida masofadan boshqariluvchi maishiy texnikalar, transport vositalari va boshqalar. Tarmoq texnologiya tadqiqotchilariga kamroq quvvat sarflaydigan va deyarli har qanday turdagi qurilmaga ulanishi mumkin bo'lgan kichikroq va arzonroq simsiz tizimlarni ishlab chiqish uchun kuch beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Ma'lumki axborotlashgan ta'lim jarayonining zamonaviy tendensiyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatda o'qitishning

an'anaviy modelidan elektron ta'limga o'tish, so'ngra esa tarmoq texnologiyalari insonning shaxsini shakllantirish va ta'lim oluvchida yangi bilimlarni generatsiya qilishga ijozat beruvchi samarali texnologiyalari mavjud, qaysiki qidirish, axborotni tahlil etish va innovatsiyalar yaratish uchun takomillashgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ega bo'lgan tarmoq texnologiyalari ta'limga o'tishni taqozo qiladi.

Fan-texnika taraqqiyoti, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uning kelajagini belgilab olishda kishilar intellektual salohiyati haqidagi axborot nihoyatda muhimligini ko'rsatmoqda. Shuning bilan birga dunyo bo'yicha ilm - fan rivojining bugungi holati, ayniqsa bu boradagi zamonaviy axborot texnologiyalari keng joriy etilgan jamiyatda "Tarmoq texnologiyalari" fani sohasida



bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni jadal egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil tarzda bilim izlashdek vazifasini ham qo'yimoqda.

Xorijiy mamlakatlar va davlatimizdagi bir qator olimlar tomonidan "Tarmoq texnologiyalari" fanini o'qitish muammolari o'rganilib, o'quv pedagogik kompyuter dasturlari ishlab chiqilmoqda, shuningdek o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq qilinmoqda. Respublikamizda ham bu sohadagi ishlarni davr talablari darajasiga ko'tarish bo'yicha samarali ishlar olib borilayotganligiga qaramasdan, bugunga qadar quyidagi muammolar o'z yechimini kutmoqda: tarmoq texnologiyalari fanidan o'zbek tilidagi darslik va qo'llanmalar, shu jumladan, elektron variantlarning yetarli darajada emasligi va mavjudlarining zamonaviy talabga javob bermasligi; fan borasida elektron ta'lim resurslarning yetishmasligi; amaliy, laboratoriya va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatmalarning talab darajasida emasligi va boshqalar.

Ta'lim-tarbiya jarayonida integrativ yondashuvni amalga oshirish tizim yoki mavjud shakldagi yaxlit ob'ektning ichki va tashqi aloqalari, uni tashkil etish va boshqarish qonuniyatlarini bilgan holda olib borilishi mumkin. Kichik mutaxassislarni tayyorlashda integrativ yondashuv mutaxassislikka oid bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifat hamda fazilatlarini yaxlitligini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Natijalar:

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf qilish va bo'lajak mutaxassislarga kasbiy bilimlarini takomillashtirish tizimini ishlab chiqishda birinchi navbatda, metodologik, kasbiy, motivatsiya, pedagogik, psixologik, tizimli, nazariy-

ilmiy, ijodiy-amaliy, o'z-o'zini baholash, mustaqil bilim olish, kasbiy yutuqlarning istiqbolini ko'ra bilish kabi omillarni e'tiborga olish kerak.

O'quv jarayonida tarmoq texnologiyasining qo'llanilishi muhim pedagogik anglash, ijodiy yondashuvchi va faol fikrlovchi pedagog, ta'lim jarayonini modellashtirish usuli va o'z faoliyati natijalarini oldindan bashorat qilishni talab qiladi. Elektron ta'lim resurslari va tarmoq texnologiyalarni ta'limda foydalanilishi uchun loyihalash ko'nikmasi o'qituvchi professionalizmining bir qismi sanaladi. O'quv jarayoniga tarmoq texnologiyalarni tatbiq qilish ta'limning hamma sub'ektlari uchun shubhasiz ko'pgina afzalliklar tuhfa etadi.

Tarmoq texnologiyalari ta'lim muassasalarini, o'qituvchilar va talabalarni Internetda umumiy standartlar va texnologiyalar yordamida ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun yagona tizimga birlashtiradi, shuningdek, ularning akademik mobillik darajasini ko'taradi. Shu bilan birga, o'qitish muhiti moslashuvchan, dolzarb, interfaol va shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, har bir o'qituvchi va talaba zamonaviy kompyuter texnologiyalariga erkin kirish imkoniyatiga ega bo'lishi, shuningdek o'quv jarayoniga yangi o'qitish usullarini joriy etish imkoniga ega.

Muhokama:

Tarmoq texnologiyalari asosida integratsiyalashgan o'quv muhiti yordamida ta'lim berish - bu ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyati, motivi, intellekti va imkoniyatini inobatga oluvchi, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan ta'lim oluvchi bilimini rivojlantirishda samarali foydalanuvchi o'qitishdir. Uning yordamida ta'lim berish ta'lim berishni differensiallash



va individuallashtirishning asosiy tamoyili sifatida qaraladi.

“Tarmoq texnologiyalari” fanidan tuzilgan mustaqil ta’lim mavzularida talabalarning fandan mustaqil bilim olishlari uchun ularga nazariy ma’lumotlarni o’rganishlari bilan birga, amaliy topshiriqlar berish orqali ularning kompyuter tarmoqlari va dasturiy -texnik vositalari, tarmoqning amaliy dasturlar imkoniyatlarini o’rganish hamda ular bilan ishlay olish malakalarini yanada mustahkamlanadi. Bu esa talabalarning fanga bo’lgan qiziqishlarini oshiradi, talabalar kompyuter tarmoqlarini loyihalash kabi ishlarni mustaqil amalga oshirish malakalariga ega bo’lishadi.

Hozirgi kunda pedagogik tadqiqotlarining tahlili ta’lim-tarbiya jarayonining rivojlanishiga to’siq bo’layotgan bir qator muammolar mavjudligidan dalolat beradi. Bizning fikrimizcha, muammolar ko’proq o’rganilayotgan ob’ektlarning ba’zi bir jihat

va xususiyatlarini lavhalar shaklida o’rganish natijasida yuzaga kelib, mantiqan bog’lanmaganligidir. Amaliyotdagi bunday holatlarni bartaraf qilishda integrativ yondashuv asosiy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa:

Xulosa o’rnida shuni aytish jozki, zamonaviy oliy ta’limning ajralib turadigan xususiyatlari bu moslashuvchanlik, samaradorlik va amaliy yo’naltirish ekanligi sababli, bunday bilimlar almashinuvi an’anaviy bilimlarni reproduktiv uzatishdan ijodiy ta’lim shakliga o’zining innovatsion usullari, shakllari va vositalari bilan o’tishini anglatadi. Bu ham tarmoq texnologiyalarining takomillashishi tufayli mumkin bo’ldi. Aqlli ta’lim moslashuvchan ta’limning paydo bo’lishining asosiy sharti bo’lib, u dunyo miqyosida jamoat mulki bo’lgan tarkibdan foydalangan holda interfaol ta’lim muhitida ishlaydi.

References:

1. Abduqodirov A.A. Smart-texnologiyasiga oid tushunchalar va uning asosiy tamoyillari. //Axborot ta’lim makonini takomillashtirishda axborot resurslari va texnologiyalari integratsiyasi: Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Toshkent.:TDPU, 2019.
2. Aripov M., Fayzieva M. Webga asoslangan moslashuvchi ta’lim tizimlari//Amaliy matematika va informatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari – Al-Xorazmiy 2016.
3. Begbutaev A.E. Kasbiy bilimlarni oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o’rni. Toshkent -2013.
4. Begbutaev A.E. Virtual laboratoriya ta’lim oluvchilarning bilim sifatini oshirish vositasi. "Tafakkur ziyosi". 2018.
5. Zakirova F.M., Begbutaev A.E. Ta’limda innovatsion texnologiyalar jamiyat rivojining poydevori. – Samarqand. 2020.